

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAJABOV FAXRIDDIN TOSHPO‘LOTOVICH

**NUROTADA BADIY IJODKORLIK
(XIX-XXI ASRLAR)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

UDK:(891.709575-141)

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Rajabov Faxriddin Toshpo'lotovich

Nurotada badiiy ijodkorlik (XIX-XXI asrlar).....

Ражабов Фахриддин Тошпулатович

Художественное творчество в Нурате (XIX-XXI вв.).....

Rajabov Fakhriddin Toshpulatovich

Artistic creativity in Nurota (19th-21st centuries).....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAJABOV FAXRIDDIN TOSHPO‘LOTOVICH

**NUROTADA BADIY IJODKORLIK
(XIX-XXI ASRLAR)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Fil802 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida va (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkinov Aftondil Sadirxonovich
filologiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Sulaymonov Isroil Isomiddinovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Ramazonov Nodir Normurodovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ -raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil " _____ " _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil " _____ " _____ dagi _____ -raqamli reestr bayonnomasi).

M.Q.Muhiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.A.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi globallashuv davrida badiiy adabiyot olamini umumbashariy mezonlarga muvofiq baholashni talab etgani holda, adabiyotda badiiy ijodkorlik va uning manbalari masalasini, shoir va yozuvchilar badiiy ijodi va tarjimai holiga oid ma'lumotlarni ma'lum bir hudud doirasida o'rganishni, ayni hudud xususiyatlari va tarixiy merosini saqlab qolib, kelajak avlodga yetkazishni talab etmoqda. Yangilanayotgan davrga uyg'un tarzda adabiyotshunoslikning turli tadqiqot metodlari va yangicha tahlil usullari asosida zamonaviy adabiyotda yangilanish jarayonlari bugungi kunda hududiy ijodkorlikni umumiy adabiyotga adabiy ta'sirini o'rganish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Dunyo adabiyotida ham ijodkor ziyolilar ijtimoiy hayotni badiiy ijod namunalari shaklida ifodalab kelmoqda. Badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi shoir yoki yozuvchilar asarlarini ma'lum bir hudud doirasida to'plash, o'rganish, manbalarini topish, kasbi nuqtai nazaridan ijodkorlikka aloqasi bo'lmagan she'r yoki asar yozuvchilarni topishga hamda ijod namunalari umuminsoniy qadriyatlarga xos an'analarni davom ettirgan adiblar ijodini o'rganishga e'tibor kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan o'zbek adabiyoti tarixi rivojlanishida hududiy ijodkorlikni o'rganish zarurati muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar boshqa sohalar bilan birgalikda adabiyotshunoslik yo'nalishida ham o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan ekan, Prezidentimiz haqli ta'kidlaganlaridek, "Biz Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar, davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi"¹. Shunday ekan, Nurota hududida XIX-XXI asrlarda yashab ijod qilayotgan ijodkorlar asarlari va ularni yaratuvchilari bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash yo'qolib borayotgan adabiy asarlarni matnda muhrlashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda. Bu o'z navbatida o'zbek adabiyotida hududiy ijodkorlik masalasini keng ko'lamda, mualliflar asarlari, janrlari, badiiy ijodkorlik xususiyati, ikki tilli badiiy ijodkorlik masalalarini badiiy-konseptual prinsiplari asosida o'rganish va ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-fevraldagi PQ-1292-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylari kuni bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <http://uza.uz.post/3452>.

tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2019-yil 10-oktyabrdagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qonun, qaror va farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-oktyabrdagi 807-son "Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi "Chashma" ta'rixiy-me'moriy majmuasini kompleks rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 2-avgustdagi 645-son "2019-2021 yillarda Navoiy viloyati Nurota tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qila olishi mumkin.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida O.Karnauxova, D.Batten, D.Boys, A.Andersson²lar tomonidan hududiy ijodkorlik masalalariga doir materiallar tazkira, to'plam, bayozlar shaklida e'lon qilingan.

O'zbek adabiyotshunosligida esa Muhammad Avfiy, Davlatshoh Samarqandiy, Abu Mansur as-Saolibiy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, P.Qayumiy, B.Valixo'jayev, H.Homidiy, B.Yo'ldoshev, M.Kenjabek, N.Muhammad, U.Hamid, Y.Solijonov, F.Toshev, I.G'aznayev, R.Qodirov, A.Sharipov, I.Yusupov, Yu.Imomnazar, U.Yodgorova, B.Umarov, O.Aslonov, O.Hotamov singari adabiyotshunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ba'zi tadqiqotlar³ amalga oshirilgan. Shuningdek, U.Normatov,

² Карнаухова О.С. Культура и креативность: региональная специфика в стратегии. – Москва, 1980.; Batten D, Boyce D. Regional Science. – Usa, 1985.; Andersson A. Creativity and regional development. – Usa., 1985.

³ Муҳаммад Авфий. Лубоб ул-албоб. – Тошкент, 1966.; Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – Тошкент, 1981.; Абу Мансур ас-Саолибий. Ятимат ад даҳр фи маҳосин аҳл ал-аср. – Тошкент, 1998.; Аттор Ф. Тазкират-ул авлиё. – Тошкент, 2017.; Абдурахмон Жомий. Баҳористон. – Тошкент, 2007.; Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Тошкент, 2013.; Қаюмов П. Тазкираи Қаюмий. – Тошкент, 1999.; Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент, 1993.; Саъдиев С. Самарқанд адабий муҳити. – Тошкент: Фан. 2009.; Ҳамиджон Х., Маъмуров М. Наманган адиблари. – Тошкент, 2007.; Мирзо Кенжабек. Буюк Термизийлар: Термиз тазкираси. – Тошкент, 2017.; Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – Тошкент, 2006.; Ҳамид У. Марғилон фарзандлари. – Фарғона, 2000.; Солижонов Й. Фарғона адиблари. – Тошкент, 2005.; Тошев Ф. ва бошқ. Юртни севмоқ саодати: Самарқанд

M.Muhiddinov, N.Rahimjonov, H.Umurov, D.To‘rayev, A.Xolmurodov, Sh.Hasanov, U.Qobilov, X.Do‘stmuhammad, U.Jo‘raqulov, B.Karim, A.Nosirov, U.Hamdammov asarlariga⁴ dissertatsiyaning nazariy qismini yoritishda murojaat qilindi.

Hududiy ijodkorlik va uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi va badiiy adabiyotdagi talqini masalalari o‘zbek adabiyotshunosligida ham ma’lum darajada o‘rganilgan. Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida ayrim tadqiqotlar tarkibida bevosita mavzuga doir fikrlar nisbatan kam tahlil qilingan bo‘lsa-da, bevosita mavzu yo‘nalishiga doir tadqiqotlarda bir qator ilmiy-nazariy qarashlar ham yuzaga keldi. Jumladan, S.Sa‘diyev, B.Yo‘ldoshev, I.Sanayev, P.Turobova kabi adabiyotshunos va tarixnavis olimlarning asarlari va ilmiy tadqiqotlari⁵ bunga misol bo‘la oladi. Nurota ziyoratgohlari va tarixiga oid kitoblar nashr etilgan va ma’lumotlar keltirilgan⁶. Ammo Nurota va unga yaqin hududlardagi badiiy adabiyotga oid materiallar hozircha yaxlit o‘rganilmagan va tarix jihatdan amalga oshirilgan ishlarga nisbatan juda oz miqdorni tashkil etadi. Masalan, tarixnavis Ismat Sanayev tomonidan Zarafshon vodiysi adabiy muhiti yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib, “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti”⁷ nomli kitob yaratildi. Hududlar kesimida olib qaraydigan bo‘lsak, ma’lum bir hududdagi ijodkorlar haqida yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek bayoz va tazkiralar, kitoblar nashr qilingan. Ammo Nurotadagi badiiy ijodkorlik maxsus o‘rganilmagan. Biz mana shunday badiiy ijodkorlarga oid

баёзи I-II китоб. – Тошкент: Tafakkur bo‘stoni, 2011.; Ғазнаев И. Қўшработ оҳанглари: шеърлар ва ҳикоялар. – Тошкент, 2010.; Раҳим Қ. Зарафшон оҳанглари: Баёз. – Тошкент, 1996.; Гули санг. Барғузидаи ашъор ва осори насрии шоири нависандағони кўхистони Нурота. (То‘рлам) – Тошкент, 2020.; Шарипов А., Юсупов И. Мехрнома. – Самарқанд, 2022.; Умаров Б. Навбахор илҳомлари (тўплам). – Тошкент: Муҳаррир, 2012.; Сарводаи Сурхон: (Намунаи ашъори шоирони ҳавзаи адабии Сурхондарё). – Тошкент: TAMADDUN, 2011.; Аслонов О., Ҳотамов О. Туташ туйғулар: Карманалик иждоқорлар баёзи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.

⁴ Норматов У. Иждод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007.; Раҳимжонов Н. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Akademnashr, 2016.; Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.; Тўраев Д. Давр ва иждод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.; Холмуродов А. Қиссада бадий образ яратиш маҳорати. – Тошкент: Фан, 2008.; Ҳасанов Ш. Истеъдоднинг рангин жилolari // Шарқ юлдузи. – 2019, – №1. – Б. 109–115.; Хуршид Дўстмуҳаммад. Изҳор. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.; Баҳодир Карим. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа иждодий уйи, 2018.; Насиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. Филол. фан. д-ри. дисс. ...автореф. – Самарқанд, 2018.; Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент, 2016.

⁵ Йўлдошев Б. Насаф нафаси. – Қарши, 1992.; Йўлдошев Б. Қашқадарё бадиияти. – Тошкент, 1998.; Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити. – Тошкент: Tafakkur, 2009.; Туропова П. Адабий-эстетик идеал категориясининг трансформацияланиш жараёни (Жиззахлик иждоқорлар мисолида). – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2020.

⁶ Наршахий. Бухоро тарихи (форс тилидан А. Расулов таржимаси). – Тошкент: Камалак, 1991.; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994.; Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи муллозода. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.; Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). – Тошкент: Фан, 1999, 1 китоб.; Абулғози Баҳодирхон. Шажараи Турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992.; Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Тошкент, 1990; Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.; Яҳё Ғуломов. Нурота қалъаси (мақола)// Самарқанд вилояти газетаси. 1976, 20 декабр.; Мирзаев Б., Аҳмадулов К. Нурота тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1997.; Мустафоев С. Табаррук нурли Нурота. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2015.; Нурота зиёратгоҳлари. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2015.; Шавкат Исмоилзода. Нурота қиссаси. – Тошкент, 2005.; Аҳмедов Р. Нурота нурли диёр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.; Ғозғоннома. – Тошкент: Наврўз, 2003.; Умрзоқов С., Умрзоқов О. Нурота чашмаси. – Тошкент: Наврўз, 2014.; Қурбонов Х., Аҳмедов Р., Шавкат Исмоилзода., Нарзуллаев У., Тоғаев З. Нурота тумани: кеча ва бугун. – Тошкент: SANNOF, 2021.

⁷ Санаев И., Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити. – Тошкент: Tafakkur, 2009. – Б. 148.

ma'lumot va ijod namunalarini ham o'rgandik. Ayni materiallar dissertatsiya muallifi tomonidan tashkil etilgan va besh yil – 2017–2022-yillar davomida amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalar davomida to'plangan. Bunda dissertatsiya muallifi tomonidan Nurota shahri va Nurota tumanidagi 2 ta shahar va 28 ta qishloq kezib chiqilib, mazkur dissertatsiya uchun materialning muhim qismi yig'ilgan. Bizning maqsadimiz Nurotadagi deyarli barcha badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilarning tarjimai holi va badiiy ijod namunalarini bir joyga to'plab, umumiy adabiy manzarani hosil etish va ularning adabiyotimiz rivojidadagi hissasini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O'zbek adabiyotini o'rganishning yangicha tamoyillari” mavzusidagi amaliy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nurotada adabiy ijodkorlik bilan shug'ullangan adiblarning asarlarini, ular tarjimai holiga doir ma'lumotlarni to'plash va janrlar takomilidagi o'zgarishlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek adabiyoti tarixini yaratishda foydalanish uchun muayyan hudud – Nurota tumanidagi ijodkorlar, ularning asarlarini aniqlash va matnlardagi ko'p qo'llanilgan obrazlarni ochib berish;

Nurota tumanidagi shahar va qishloqlarga borib, badiiy ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish hamda ular yaratgan asarlarni izlab topish;

hududda yaratilgan badiiy asarlar nashri, gazeta va jurnallardagi badiiy ijod namunalari hamda mualliflarda saqlanuvchi qo'lyozmalarni to'plash, nusxalar olish, ularning haqqoniyligini isbotlash;

ijodkorlar biografiyasi va asarlaridan namunalar kiritilgan to'plamlar tayyorlash maqsadida yig'ilgan materialni sistemalashtirish;

hozirgi Nurota adabiyotida an'ana va novatorlik masalalari yoritilgan yangi materiallarni ilmiy tadqiq etish, ijodkorlarga xos individual xususiyatlarni dalillash;

kelajakda “Nurota hududi adiblari”, “Nurota hududi adabiyoti tarixi” singari tadqiqotlar yaratish uchun asos hosil qilishga urinish.

Tadqiqotning obyektini Nurota tumanidagi badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi yuz nafarga yaqin professional va havaskor ijodkorlar ijod namunalari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini Nurotalik ijodkorlar ijodi mahsuli bo'lgan turli janrdagi badiiy asarlar va ular mualliflari biografiyasiga doir ma'lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning avtobiografik, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, taqqoslash, tahlil va tavsif, sotsiologik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Nurota badiiy ijodkorligining XIX asrda paydo bo'lganligi hamda XXI asrda taraqqiy etganligi, janr, mavzu va badiiy obrazlarning qorishiq, mutatsion, janrlar

almashinuvi singari sinekretik xususiyatlari hamda an'ana va novatorlik kabi ohangdorlik, yechimni keskinligi, soddalik kabi poetik jihatlari ochib berilgan;

Nurotalik ijodkorlar tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar hamda asarlarining nashr va qo'lyozma nusxalari asosida ulardagi ezgulik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi g'oyaviy-badiiy, lirik turdagi vazn, qofiya, badiiy san'atlarni qo'llashdagi individuallik asoslangan;

Nurota tumanining shimoliy dahasi Qizilqum bo'ylab Qiziltepa, Konimex tumanlarigacha bo'lgan hududlarda yetishib chiqqan baxshilarni birlashtirgan dostonchilar guruhi Qurbon baxshi, Ashur baxshi, Isirgap baxshi, Bekmurod Jo'raboy o'g'illarining "Sormonxon", "Ahmadxon", "Cho'pon qiz", "Maston kampir" kabi dostonlarida mardlik, do'stlik, jasorat motivlarining syujetni harakatlantiruvchi kuch ekanligi hamda ijro usullarida shevaga xos so'zlarning makonga qarab o'zgarib borishi ko'rsatilgan;

Nurotalik shoir va yozuvchilarning makon va zamon nuqtayi nazaridan tabiat tasviri, obrazlar rang-barangligi, lirik qahramon ruhiy holatini dinamik o'sib borishi kabi farqli jihatlari hamda ularning tarixiy va zamonaviy mavzudagi asarlarida soddalik, ixchamlilik, xalqonalik va tarixiy shaxslar orqali donolik obrazini olib kirishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nurotalik shoir va yozuvchilarning avtobiografiyasi va asarlari, ularning turli nusxalari to'planib ular asosida dissertantning o'z uyida kutubxona tashkil etilganligi, nurotalik shoir va yozuvchilar bilan "Badiiy ijodkorlikni yuzaga keltiruvchi omillar" mavzusida suhbat-intervyular o'tkazilganligi va ular matn holiga keltirilgan nusxalari hosil qilingan;

Nurotadagi ijodkorlik bilan bog'liq nashr, qo'lyozma, qo'lyozmalardan olingan nusxa, video va audioyozuvlar, foto va turli rasmlar to'plangan;

XIX-XXI asrlardagi nurotalik shoir va yozuvchilar haqidagi mavzularni yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilganligi asoslangan;

dissertatsiya asosiy natijasi o'laroq, imkon qadar, 100 nafarga yaqin adib tarjimai holi va asarlariga doir ma'lumotlar to'plandi. Ular tomonidan yozilgan 1800 ga yaqin asar (janriga ko'ra: 1750 dan ortiq she'r, 3 ta roman, 10 ta qissa, 35 ta hikoya, 1 ta drama), 10 ta intervyu, 15 ta foto, 200 ta qo'lyozma ijod namunalari manba sifatida to'plandi.

"Nurotalik adiblar" nomli kitob uchun ma'lumotlar to'planganligi, badiiy ijod bilan shug'ullanuvchi ijodkorlar ijodidan namunalar yig'ilganligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalarning avtobiografik, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, taqqoslash, tahlil va tavsif, sotsiologik kabi metodlar bilan asoslangani, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududiy ijodkorlikni o'rganish natijasida chiqariladigan ilmiy-nazariy xulosalar o'zbek adabiyotshunosligi, o'zbek adabiyoti tarixi, folklorshunoslik, adabiyot nazariyasi fanlarining taraqqiyot yo'nalishlarini

belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etishida hamda bu yo'nalishda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida muhim nazariy manba vazifasini bajarish, xususan, nurotalik shoir va yozuvchilar hayoti va ijodi bilan tanishishga, nurotalik shoir va yozuvchilar asarlarini yaxlit va atroflicha tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Nurotalik ijodkorlar ijodi bo'yicha tadqiqotlar yaratish, Nurotalik shoir va yozuvchilar antologiyasini tuzish, Nurotalik adiblar haqida yaxlit kitoblar yaratish, oliy ta'limda o'qitiladigan o'zbek adabiyoti tarixi, folklorshunoslik, adabiyot nazariyasi fanlariga oid darslik, elektron darslik va o'quv qo'llanmalarini tuzish va takomillashtirishda Nurotalik shoir va yozuvchilar asarlaridan ixtisoslik fanlarini o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nurotada badiiy ijodkorlik (XIX-XXI asrlar) mavzusini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Nurota badiiy ijodkorligining XIX asrda paydo bo'lganligi hamda XXI asrda taraqqiy etganligi, janr, mavzu va badiiy obrazlarning qorishiq, mutatsion, janrlar almashinuvi singari sinekretik xususiyatlari hamda an'ana va novatorlik kabi ohangdorlik, yechimni keskinligi, soddalik kabi poetik jihatlariga doir nazariy xulosalaridan FA-F1-GOO2 "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 17-apreldagi 17.01/90-son ma'lumotnomasi) Natijada tadqiqot natijalarini amaliy qo'llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalarning hamda badiiy matn va nutq haqidagi olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

Nurotalik ijodkorlar tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar hamda asarlarining nashr va qo'lyozma nusxalari asosida ulardagi ezgulik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi g'oyaviy-badiiy, lirik turdagi vazn, qofiya, badiiy san'atlarni qo'llashdagi individuallik asoslanganligiga doir nazariy xulosalardan FA-F-1-OO5 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 17-apreldagi 17.01/86-son ma'lumotnomasi) Natijada tadqiqot natijalarini amaliy qo'llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalar poetik matn, nasr va nazm yo'nalishidagi asarlar badiiyati haqidagi olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

Hududiy ijodkorlik masalasi, nurotalik shoir va yozuvchilar ijodi va adabiy merosini yig'ish va o'rganish, yoshlar ma'naviy kamolotini yuksaltirishda nurotalik adiblar asarlarining ma'naviy-ma'rifiy qimmatini va ahamiyatini, shuningdek, o'tmish ajdodlarimiz va zamondosh adiblarimizning ma'naviyatiga muhabbat tuyg'usini oshirishga doir nazariy fikr-mulohazalar va tahlillardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom, yangi kun", "Adabiyot va hayot", "Jarayon", "Nazm va navo", "O'zbek adabiyoti" kabi ko'rsatuv va radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 18-maydagi 01-02/80-son ma'lumotnomasi).

Natijada tomoshabinlarning Nurota adabiy ijodkorligi hamda shoir va yozuvchilar asarlari mavzusi va mazmuni borasidagi bilimlari takomillashuviga ular biografiyasiga doir qimmatli ma'lumot va manbalarga boy bo'lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (4 ta Respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Adabiy muhit va uning regional tadqiqi**" deb nomlanib, ikki faslni o'z ichiga oladi. Birinchi fasl "**Jug'rofiy tazkiralari va ularning adabiyot tarixidagi o'rni**" deb nomlanadi. Ushbu faslda O'rta Osiyodagi tazkirachilik tarixi va uning manbalari masalasi xususida so'z yuritilib, Abu Ali ibn Sinoning "Mu'tasam ush-shuaro" ("Shoirlarning panohgohi", XI asr), IX asrda Abdullo ibni Muslimning "Kitob ash-she'r va shuaro" va Kaykovusning "Qobusnoma" asarida keltirilgan adabiyot nazariyasiga oid qarashlarga suyanildi. Keyinroq turli "tazkira"lar paydo bo'ladi va ularda, odatda shoirlarning tarjimai holidan ba'zi ma'lumotlar, ularning ijodi va shaxsiyatiga umumiy baho beriladi, asarlaridan juda qisqa namunalar keltiriladi. O'rta Osiyoda bunday tazkiralardan Muhammad Avfiyning "Lubob ul-albob" ("Mag'izlarning mag'izi", XIII asr), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (XV asr), Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" ("Go'zallarning majlislari", XV asr), Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-as'hob" ("Suhbatdoshlar zikri", XVII asr), Fazliyning "Majmuat ush-shuaro" (XIX asr) asarlaridir.

Shuningdek, ushbu bo'limda jug'rofiy tazkiralari haqidagi Maqsud Shayxzodaning qarashlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligi xususida so'z boradi. Olim "Tazkiralari ko'pincha yo geografik, yo monografik, yo xronologik, yo sulolaviy, yo ijodiy prinsipda quriladi yoki shoir nomlarining oxiridagi

harflarga qarab alifbe tartibida beriladi. Ammo bu prinsiplarning ikki uchtasini qo‘shib, aralashtirib tazkira tuzgan mualliflar ham bor”ligi haqidagi⁸ tazkirachilik hamda bugungi davrda hududiy ijodkorlik masalasida akademik Botirxon Valixo‘jayev, professorlar Sadri Sa‘diyev, Boynazar Yo‘ldoshevlarning ilmiy nazariy qarashlariga e‘tibor qaratildi.

Sharq adabiyotida tazkira yozish an‘anasi uzoq tarixga ega ekanligini akademik Botirxon Valixo‘jayev alohida ta‘kidlaydi⁹.

Navoiy tazkirachiligining ta‘sirini ozarboyjonlik Sodiqbek Afshor Sodiqiy – Sodiq Kitobdorning “Majma‘ ul-xavos” (“Xoslar majmuasi”) tazkirasida ham ko‘rish mumkin¹⁰. Professor Hamid Orasli atoqli Ozarboyjon shoiri Fuzuliy yashagan davr haqida gapirib, XVI asrda Alisher Navoiy ijodining Ozarboyjon adabiyotiga ta‘siri to‘g‘risida shunday yozadi: “O‘zbek daholariga bo‘lgan maroq, Navoiy merosining o‘rganilishi hatto nasr sohasida ham o‘z ta‘sirini qoldirdi. XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida yashagan Sodiqbek Afshorning “Majma‘ ul-xavos” tazkirasini Navoiy “Majolis un-nafois”ining tiliga yaqin bir tilda yozganini ko‘ramiz”¹¹.

O‘rta Osiyo shoirlari kiritilgan tazkiralar qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” (1605), Muhammadbade‘ Maleho Samarqandiyning “Muzakkir ul-as‘hob” (“Suhbatdoshlar zikri”, XVII asr) tazkirasini, “Majmuai shoiron”, 1871-yilda Qori Rahmatulla Vozeh tomonidan tuzilgan “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as‘hob”, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida tartib berilgan “Tazkirai Fahmiy”, Abdulazim Shar‘iyning “Tazkirat ush-shuaro”, Mirsidiq Hashmatning “Tazikrat ush-shuaro”, Muhammad Sharif Sadr Ziyoning “Tazkor ul-ash‘or”, Hoji Ne‘matullo Muhtaramning “Tazkirat ush-shuaro” kabi tazkiralar ham tartib berilgan.

Shu kabi tazkiralardan biri Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr” nomli mashhur tazkirasidir¹². “Muallifning zamondoshlariga bag‘ishlangan bu tazkira noyob dalillarni qamrab olgani, o‘sha davr shoirlaridan ko‘pchiligining zikrini qayd qilgani bilan faqat arab adabiyotshunosligi uchun emas, balki Movarounnahr va Xurosondagi adabiy muhit haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lishda muhim ahamiyatga egadir”¹³. Bu tadqiqotlarning

⁸ Шайхзода М. Тазкирачилик тарихидан. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик, 4-том. –Тошкент: Ф. Фулом номдаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 302.

⁹ Кейинги йилларда форс-тожик ва урду тилларида Ҳиндистон, Покистон ва Афғонистон ва Эронда ёзилган турли хил tazkiralarни махсус ўрганиш борасида Покистон ва Эрон олимлари айрим ишларни амалга оширдилар. Шундай ишлардан покистонлик доктор Сайид Алиризо Нақавийнинг “Ҳиндистон ва Покистондаги форсий tazkiralar” (Техрон, 1968, 904-бет). Эрон адабиётшуноси Аҳмад Гулчин Маонийнинг “Форсий tazkiralar тарихи”. (Техрон, 1970, 1-том) каби асарларни кўрсатиш мумкин.

¹⁰ Кабулова Р.В. Традиции “Маджалис ун-нафис” Алишера Навои в тюркоязычной литературе (на материале антологии Садиқбека Садики “Маджма ул-хавас”). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Ташкент, 1979.; Султанов Т. И. Алишер Навоий ва озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, аънаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содикий асарлари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020.

¹¹ Орасли Х. Буюк озарбойжон шоири Фузулий. – Боку, 1958. (Озарбойжон тилида)

¹² Бу tazkiraning Ўрта Осиёлик шоирларга бағишланган қисми асарнинг тадқиқоти билан бирга адабиётшунос И. Абдуллаев томонидан нашр этирилган. Абу Мансур ас-Саолибий. Ўатимат ад-дахр. – Тошкент: Фан, 1976.

¹³ Абдуллаев И. Абу Мансур Абдумалик ас-Саолибий. – Тошкент, 1992.

muhimligi shundaki, ularda hududiy tazkiranavislik an'analari ham rivojlanib bordi.

Sadri Sa'diyev tomonidan yaratilgan "Samarqand adabiy muhiti tarix ko'zgisida"¹⁴ asari o'tgan davrlarda Samarqand adabiy muhitiga mansub bo'lgan 185 nafar mashhur va sermahsul ijod qilgan, shuningdek, zamonasida e'tirof etilgan qalamkashlarning ma'lum bir qismi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu kitobda o'n asr (X–XX asrlar) davomida ijod qilgan samarqandlik qalam ahllari ijodi xususida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi.

Boynazar Yo'ldoshev tomonidan yaratilgan "Nasaf nafasi"¹⁵, "Qashqadaryo badiiyati"¹⁶, "Qashqadaryo adiblari"¹⁷ asarlarda qadimgi Nasaf hozirgi Qashqadaryo zaminida yetishib chiqqan shoir va yozuvchilar ijodiga qadim davrlardan bugungi kungacha nazar tashlanib, qashqadaryolik qalam ahllari hayoti va ijodiga keng to'xtalib o'tadi. Ushbu asarlar ham geografik tazkiralari tarkibli ya'ni ma'lum bir hudud ijodkorlari haqidadir.

Ikkinchi fasl "**Og'zaki va yozma adabiy yodgorliklarda Nurota madaniyati va badiiy adabiyoti**" deb nomlanadi. Ziyoratgohlar mavjud ekan ko'pincha ular bilan bog'liq afsonalar ham vujudga keladi.

Mavjud bo'lgan materiallar asosida afsona va hikoyalarni guruhlariga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1. Nurotaga aloqador hukmdorlar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar. 2. Ziyoratgohlar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar. 3. Chashma ziyoratgohi bilan bog'liq afsona va rivoyatlar.

Nurotadagi baxshichilikning rivojlanishi ikki dostonchilik maktabi asosida qurilgan: 1. Qo'rg'on dostonchilik maktabi. 2. Nurota dostonchilik maktabi.

Qo'rg'on dostonchilik maktabi o'zbek folklorshunosligida baxshichilik san'ati markazlaridan. Qo'rg'on dostonchilik maktabiga mansub baxshilar Mang'ishtov, Nurota tog'i, Oqtov etaklarida, Miyonqolga qadar cho'zilgan keng hududda yashaganlar. Ularning ko'pchiligi Qo'rg'on qishlog'ida tarbiya topgan Ergash Jumanbulbul o'g'lining ota bobolari asos solgan bu maktab XVII–XX asrlarda yashagan Yodgor Usta Qo'lay o'g'li, Usta Lafas Yodgor o'g'li singari o'nlab dostonchilarni birlashtirgan. Bu baxshilar ko'proq ishqiy dostonlar kuylashgan.

Nurota dostonchilik maktabi Nurota tumanining shimoliy dahasi Qizilqum bo'ylab Qiziltepa, Konimex tumanlarigacha bo'lgan hududlarda yetishib chiqqan baxshilarni birlashtirgan dostonchilar guruhi Qurbon baxshi, Ashur baxshi, Isirgap baxshi, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Qurbon Navro'zov, Tursun Sherov, Ma'mur Ermatov, Fayzi Najmiddinov kabi o'nlab ijodkorlar shu maktabga mansub bo'lib, Nurota, Navoiy, Tomdi, Konimex, Navbahor, G'ijduvon, Shofirkon tumanlari aholisiga xizmat qilganlar. Bu maktabning so'nggi talantli vakillari Saidmurod Panoh o'g'li va Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan "Alpomish", "Odilxon", "Kuntug'mish" (Xolbeka), "Go'ro'g'lining Qirimga borishi", "Avazxon", "Malikai ayyor" (Gulshanbog') kabi dostonlar yozib olingan va nashr

¹⁴ Саъдиев С. Самарқанд адабий муҳити тарихи кўзгусида. – Тошкент, 2009.

¹⁵ Йўлдошев Б. Насаф нафаси. – Қарши, 1992.

¹⁶ Йўлдошев Б. Қашқадарё бадиияти. – Тошкент, 1998.

¹⁷ Йўлдошев Б. Қашқадарё адиблари. – Тошкент, 2020.

qilingan. Bu baxshilar repertuarida boshqa hududlarda tarqalmagan “Sormonxon”, “Ahmadxon”, “Cho‘pon qiz”, “Maston kampir” kabi dostonlar ham bo‘lgan. Ammo ular o‘z vaqtida yozib olinmagan. Shuningdek, bu hududlardagi qoraqalpoq va qozoq xalqlari orasida ham XX asr boshlarigacha izchil dostonchilik an‘analari davom etgan. Bu an‘analarning Nurota dostonchilik maktabi vakillariga ta‘siri sezilarli bo‘lgan. Bu ta‘sir repertuar tarkibini o‘zgartira olish darajasida bo‘lmasada, ko‘pgina motivlar talqini, ijro usullarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ikkinchi bob **“Nurotada badiiy ijodkorlik manbalari”** deb nomlanib, ikki faslni o‘z ichiga oladi. Birinchi fasl **“Xalq og‘zaki ijodi va davr ruhi”** deb nomlanadi. Badiiy ijodkorlikning vujudga kelishi bevosita xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Nurotalik baxshilar tomonidan aytilgan doston va termalar folklorshunosligimizda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zbek adabiyoti va folklorining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Nurota dostonchilik maktabining asl nomi Qo‘tirqishloq dostonchilik maktabi deb yuritilgan chunki, ko‘plab doston kuylovchi baxshi-shoirilar aynan shu qishloqdan yetishib chiqqan. Bu nom keyinchalik Mozor qishloq deb nomlangan. Bugungi kunga kelib esa Saidjon Eshon qishlog‘i nomi bilan yuritilmoqda. Bu qishloq nomi bilan yuritilgan baxshichilik maktabi va uning dostonchilikdagi o‘rni xususida mulohazalar manbalarda o‘z aksini topgan¹⁸.

Nurota dostonchiligini boshqa dostonchilik maktabidan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyat mavjud: ular bir dostonni o‘zbek davrasida o‘zbekcha, qoraqalpoq davrasida qoraqalpoq, qozoq davrasida qozoq, tojik davrasida tojik, turkman davrasida turkman tiliga yaqinlashtirib kuylashga intilganlar. Bu haqida Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li shunday deydi:

*Chankutning shogirdi Qurbon shoirning
Ovozasi ko‘p joylarga yoyildi.
Qozoq, qoraqalpoq, turkman-u o‘zbek,
Yana tojiklar ham unga qoyildi¹⁹.*

Nurota dostonchilik maktabining vakillaridan turli mavzularda bitilgan doston va termalar saqlanib qolgan. Jumladan, zamondan shikoyat, amaldorlardan norozilik, o‘zining nochor ahvolidan xabar berish kabi mavzularda kuylangan termalar mavjud.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Nurotalik ijodkorlar asarlarining tarkibi va tasnifi”** deb nomlanadi. Nurotalik ijodkorlar 20 ga yaqin she‘riy janr va she‘r shakllarida ijod qilganlar. Bular: she‘r, doston, hikoya, qissa, g‘azal, roman, drama, muxammas, ruboiy, tuyuq, she‘riy ertak, she‘riy masal, uchliklar, to‘rtliklar, sochmalar kabi epik va lirik janrlar, she‘riy shakllarda asarlar yaratilgan.

Suyundik Mustafo Nurotoiyning adabiy merosi asosan ma‘rifiy jihatdan o‘ziga xos yo‘sinda hudud tarixi, ziyoratgohlari, mashhur ajdodlar, nurotalik tarixiy shaxslar, O‘zbekistonning barcha hududlarida nisbat berilgan, ma‘lum bo‘lgan va ma‘lum bo‘lmagan muqaddas sanalgan qadamjolarining barchasi

¹⁸ Қодиров Р. Халқ куйчилари // Ленин йўли (ҳозирги “Зарафшон”). 1979, 9 январь. – Б. 4.

¹⁹ Қодиров Р. Чўл бахшилари // Гулистон, 1982. – № 2. – Б. 20.

muallif tomonidan o'rganib chiqilganligi kishi diqqat e'tiborini jalb etadi. Adabiy-badiiy asarlarining mazmuni shu yo'nalishda²⁰dir.

Nurotalik ijodkorlar merosini quyidagi turlar asosida o'rgandik: 1. Publitsistik lirika. 2. Intim lirika. 3. Simvolik-ramziy lirika. 4. Hajviy lirika²¹.

Publitsistik lirika namunalari Ergash Asaboyevning "Bahodir cho'pon", Rahmon Chinmirzayevning "Huzurbaxsh uyimdir...", Safar Umrzoqovning "O'zbekistonsan", "Tiniq ko'zgum mening", Rahmon Asatovning "Dunyo qolar..." Muhammad Rajabning "Qadim Turonim", Shodigul Husenovaning "O'zbekistonim", Quдрat Menglining "Turonim-Turkistonim", Bo'ron Bek Aslonning "O'zbekistonim", "Nurotam" kabi ijodkorlar tomonidan yaratilgan.

Insonning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan birga, eng yaqin do'sti va sevikli yori bilan sirlashadigan intim his-tuyg'ulari ham bo'ladi.

Intim lirikaning eng go'zal namunalari Muhammad Rajabning "Qo'msash", Farhod Arziyevning "Joningizni toshdan yasashganmidi...", Sharbat Muxtorovanning "Muhabbat bo'lmasa", Ulug'bek Asrorning "Sevgisiz qolgan bu bog'larda...", Bo'ron Bek Aslonning "Jonon ekan", Manzura Mustafo qizining "Sog'indim", Shodigul Husenovaning "Meni ayab yasha", Sitora Egamberdiyevanning "Sevib qolsam o'shanda" kabi she'rlarida o'zining go'zal ifodasini topganligi tahlil qilindi.

Simvolik-ramziy lirikaning namunalari sifatida Muhammad Rajabning "Kech kuz", Farhod Arziyevning "O, qanday umiddir bilsang, azizam", Quдрat Menglining "Shamol", Ulug'bek Asrorning "Bulut-yig'ilib qolgan hasrat", Bo'ron Bek Aslonning "Tandirga", Chamanoy Jonuzoqovanning "Kapalak", "Qish qaytar", Manzura Mustafo qizining "Kuz qonuni", Shodigul Husenovaning "Yulduzlar", kabi she'rlarini ko'rsatish mumkin.

Bo'ron Bek Aslon ijodida ma'lum bir belgilar orqali fikrni bayon qilish ustunlik qiladi. Predmetga murojaat qilinadi va shu orqali inson xarakter-xususiyati nazarda tutiladi. "Tandirga" she'rida aynan shunday ifodalarni ko'rish mumkin:

*Xayriyatki, sen borsan,
Yemoqqa issiq non bor.
Bu hayotda yashash-chun,
Shu non nomli bir jon bor,
Yopmay ochib og'zingni,
Kuydirib tan-joningni.
Nuqul oldirib yurding,
Og'zingdagi noningni²².*

²⁰ Мустафоев С. Нур ато этилган Нурота. – Тошкент: Истиқлол, 2004.; Кармана азизлари. – Тошкент: Муҳаррир, 2010.; Табаррук сиймолар. – Тошкент: Муҳаррир, 2010.; Мунаввар қадамжолар. – Тошкент: Noshirlik yog'dusi, 2011.; Фаройибат. – Тошкент: Сано-стандарт, 2012.; Қосим шайх Азизон. – Тошкент: Sano standart, 2013.; Шоҳимардон. (Ҳаммуаллиф: Асатов Р). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014.; Табаррук нурли Нурота. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.; Нурота зиёратгоҳлари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.; Ҳасад ва ҳавас. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2015.; Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. (Ҳаммуаллиф: Муҳиддин Аблаев). – Тошкент: Sano-standart. 2015; Миёнкол ёхуд Навоий вилояти уламолари. – Тошкент: Sano-standart, 2016.; Ҳазрат Юсуф Ҳамадоний ёхуд Шовот зиёратгоҳлари. – Тошкент: Paradigma, 2017.

²¹ Шукуров Н., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Маҳмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 1984. – Б. 212.

Hajviy lirikada ijtimoiy hayotning muayyan tomoni yoki ayrim guruh va shaxslarning salbiy illatlari fosh etiladi. Jumladan, igʻvogarlik, manmanlik, loqaydlik, yalqovlik, poraxoʻrlik, mansabparastlik, xudbinlik kabi illatlar satiralarda ifoda etiladi. Safar Umrzoqovning “Komissiya kelar boʻlsa...”, “Ruchkam”, Boʻron Bek Aslonning “Supurgining hasrati”, “Itlar xususida” turkum sheʼrlari hajviy lirikaning badiiy pishiq namunalari deyish mumkin.

Uchinchi bob “**Nurota adabiy muhitining taraqqiyot bosqichlari**” deb nomlanib, ikki fasldan iborat. Uchinchi bobning birinchi fasli “**XX asr Nurota adabiy muhiti**” nomi bilan yuritilgan. Nurota badiiy ijodkorligining shakllanishi bevosita mashhur baxshilar hayoti va ijodi, anʼanalari, ular tomonidan kuylangan va yozib olingan dostonlar, termalarning mavjudligi xalq ogʻzaki ijodi bilan bogʻliq. Nurotada, qadimdan baxshilar tomonidan terma va dostonlarni maʼlum bir guruh boʻlib kuylangani adabiyotlarda taʼkidlangan. Baxshilar tomonidan tez-tez tashkil qilinadigan bunday dostonxonliklar adabiy muhitning dastlabki bosqichini koʻrsatadi. Ming afsuski, yigʻinlarda kuylangan dostonlar va termalarning maʼlum bir qismigina yozib olingan xolos. Shularga qaramay Nurotadagi baxshichilik Nurotadagi ijodkorlikning dastlabki bosqichi sifatida oʻzining katta oʻrniga ega. U keyingi davrdagi, xususan, zamonaviy davr ijodkorligi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Baxshi-shoirlar tomonidan yaratilgan asarlar bevosita badiiy ijod yuzaga kelishiga poydevor boʻlib xizmat qilgan. Nurotada badiiy ijodkorlik bizga maʼlum manbalar asosida XIX asrdan boshlanadi. Ulardan hozirgacha bizga bevosita maʼlum boʻlgan quyidagi ijodkorlarni kiritish mumkin: Mulla Gul-Muhammad Afgʻon, Mirzo Salimbek, Rahmon Chinmirzayev (1936–1978), Hamdam Eshonqulov, Ergash Asaboyev (1904–2003), Safar Umrzoqov (1942–2006), Rustam Axmedov, Shavkat Ismoilzoda, Suyundik Mustafoyev, Rahim Qodirov, Rahmon Asatov, Muhammad Rajab (1962–2000), Mahmud Mardiyev, Eshniyoz Oʻrolov, Sharbat Muxtorova, Shahodat Ulugʻova, Shodigul Husenova, Saodat Rahmatova, Ulash Nurmonov (1962–2010), Alpomish Davlatzoda, Xushvaqt Yusupov, Baxtigul Mirzaqulova, Baxtiyor Omon, Abdimurod Tilavov, Farhod Arziyev, Oʻzbekboy Rahmonov, Ulugʻbek Asror, Chaman Jonuzoqova, Jamshid Berdiyev, Mohinur Xayriyeva, Norbibi Davlatova, Ramazon Shodiyev, Saʼdulla Farmonov, Sardor Salimov, Yaxshiboy Sharipov, Zilola Mardiyeva, Boʻron Bek Arslon va b. Yalpi olganda, mavzuimiz doirasida yuzga yaqin ijodkor haqida maʼlumot toʻpladik.

Tadqiqotda yuqoridagi ijodkorlarning tarjimai holi va ijodiy faoliyati hamda yaratgan asarlari xususida fikrlarimizni keltirdik.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “**Hozirgi Nurota adabiyotida anʼana va novatorlik masalalari**” deb nomlanadi. Adabiy taraqqiyotdagi har bir yangi, katta hodisa oʻtmishdagi eng yaxshi anʼanalarning ijodiy davom ettirilishi natijasida yuzaga keladi. Adabiy jarayondagi gʻoyaviy anʼanaviylik muhim xususiyat boʻlib, asardagi yetuk gʻoyalarning davr va zamonga yoki yangi sharoitga oʻzgartirilgan, chuqurlashtirilgan hamda toʻldirilgan holda yangicha ifodalanishidir.

²² Бўрон Бек Аслон. Чорбоғ гулдастаси. – Навоий, 2010. – Б. 9.

Novatorlik esa an'anaviylik elementlarini xususiy va umumiy jihatlarini yanada rivojlanishi, takomillashgan shaklini ifodalashga xizmat qiladi. An'anaviy usullarda yozilgan har qanday yetuk asarda, novatorlik mavjud bo'ladi. Aks holda u an'anaviylikning tarixan cheklangan doirasida qolib ketadi. Shu ma'noda Suyundik Mustafo Nurotoiy, Farhod Arziyev, Bo'ron Bek Aslon, Zahro Shamsiyya, Ulug'bek Asror, Dilnoza Abduhamidovalar ijodida an'anaviylik bilan birga novatorlik belgilarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Suyundik Mustafo Nurotoiyning "Mukammal emasmiz", Farhod Arziyevning "Ba'zan borgim kelar sening yoningga...", Bo'ron Bek Aslonning "Chumoli", "Ko'zdan uyqu qochdi, to'zg'idi xayol", Ulug'bek Asrorning "Kuz yomg'iri", Dilnoza Abduhamidovaning "Shodlik yurti" kabi ana shunday she'riy asarlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Nurota adabiy muhiti ijodkorlari tomonidanyozilgan asarlarda ham albatta an'anaviylik va novatorlik xususiyatlarini o'zida mujassam etish holatini ko'rish mumkin. "Nurota tarixiga oid asarlar" individual ijodkorlarning barchasida kuzatish mumkin bo'lgan an'anaviylik bu – Vatan mavzusidagi asarlar Nurota haqida S.Mustafoev²³, S.Umrzoqov, O.Umrzoqov²⁴, B.Mirzayev, K.Ahmatqulov²⁵, R.Axmedov²⁶, Sh.Ismoilzoda²⁷, R.Asatov²⁸, I.Bobonazarov²⁹, S.Bo'ldiyeva³⁰, X.Qurbonov³¹ kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Ularning mazmuni ishda o'z ifodasini topgan.

